

5-sinf adabiyot. 2-BSB (50 ball)

Asar tahlili

Quyidagi mavzulardan birin jadvaldagi yo‘nalish chizig‘i bo‘ylab tahlil qiling.

Mavzular:


Sharq hikoyat va rivoyatlari. “Ibn Sino shogirdlari”, “Non hurmati”

Sharq hikoyat va rivoyatlari. “Ota vasiyati”, “Yaxshilik unutilmaydi”

Hamza Imonberdiyev. “G‘anicha” she’rlari

Isajon Sulton. “Otamga nimadir bo‘ldi...” hikoyasi

ESLATMA: tahlil yozma bajariladi!



Jadvalga izoh:

1. Asar haqida: asar mazmuni va maqsadi qisqacha ochib beriladi.

2. Obrazlarga tavsif: har bir obrazga qisqacha izoh beriladi.

3. Asosiy voqealar mazmuni yoritiladi

a) 1-voqea:

b) 2-voqea:

c) ...

4. Asardagi obrazning o‘ziga xosligi: voqealar kesimida asar qahramonining xatti-harakatlari, o‘y-fikrlari, kechinmalari ochib beriladi.

5. Taassurotlarim: asardan olingan taassurotlar, asardagi voqeaning hayotda yuz berishi mumkin bo‘lgan voqealar bilan bog‘liqligi. Xulosa.

Baholash mezoni

20 ball		1 ta	2 ta	3 – 4 ta	5 – 7	
1. Imlo xatolari	10 ball	10 – 9 ball	8 – 7 ball	6 – 4 ball	3 – 1 ball	
2. Tihish belgilari	5 ball	5 ball	4 ball	3 – 2 ball	1 ball	
3. Husnixat	5 ball					
matn aniq, ravon, tushunarli hamda husnixat qoidalariga rioya qilingan holda yozilgan bo'lsa –	5 – 4 ball					
husnixat biroz noaniq, harflar qiyshaygan, ravon o'qish biroz qiyin bo'lsa –	3 ball					
husnixat noaniq, harflar qiyshaygan, ravon o'qish qiyin, shuningdek, harflar bo'yalgan bo'lsa –	2 – 1 ball					
4. Fikrini aniq, to'g'ri, asosli va izchil ifodalashi 30 ball						
Asar tahlilini tavsiyalar asosida, to'g'ri ketma-ketlikda yozgan, obrazlar haqida aniq, asosli fikrlar bildirgan; asardagi ikki/uchta voqea izohini qisqa va izchil yoritgan; har bir voqeada asar qahramonining xatti-harakati, holati, o'y-fikrlarini, uning atrofidagi qahramonlar xarakterini to'liq aks ettirgan; xulosalarini o'zining boshidan o'tkazgan						25 – 30 ball

(eshitgan) voqealar bilan bog‘lab xulosalay olgan bo‘lsa –	
Asar tahlilini tavsiyalar asosida, to‘g‘ri ketma-ketlikda yozgan, obrazlar haqida fikrlar bildirgan; ikki/uchta voqea izohini qisqa, aniq va izchil yoritgan; hikoya asosidagi fikr-mulohazalarini, taassurotlarini xulosalay olgan bo‘lsa-da, voqealarda qahramonning xatti-harakati, holatini to‘liq aks ettira olmagan bo‘lsa –	19 – 24 ball
Asar tahlilini tavsiyalar asosida yozgan, obrazlar haqida fikrlar bildirgan; ikki/uchta voqea izohini yoritgan, ammo voqealarda asar qahramonining xatti-harakati, holatini to‘liq aks ettirmagan; asar asosidagi xulosalari tugallanmay qolgandek taassurot uyg‘otgan bo‘lsa –	10 – 18 ball
Asar tahlilini yozishda tavsiyalardan yetarlicha foydalana olmagan, shu sabab fikrlarini izohlashda og‘ish kuzatilgan, ayrim fikrlari asoslangan, ayrimlari asoslanmagan, xulosalari ham juda jo‘n bo‘lsa –	5 – 9 ball
Asar tahlilini yozishda tavsiyalardan yetarlicha foydalana olmagan, shu sabab fikrlarini izohlashda og‘ish kuzatilgan, fikrlari asoslanmagan, ishning xulosa qismi yozilmagan bo‘lsa –	1 – 4 ball